

"Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim!" mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tishi mo'ljallanmoqda.



2015 yilning 27 avgust kuni "O'zavtoyo'l" anjumanlar zalida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 24 yilligiga bag'ishlangan **"Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim!"** mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tishi mo'ljallanmoqda. Unda xalqimizning sevimli san'atkorlari, jumladan, O'zbekiston xalq artisti, "El-yurthurmati" ordeni sohibasi Rixsi Ibrohimova ishtirok etadi. Shuningdek, tadbirda engulug' bayramga atalgan, "O'zbekkino" Milliy agentligi

buyurtmasiga binoan suratgaolingan yangi film taqdimoti ham o'tkaziladi. Mazkur tadbirga qiziqqan yurtdoshlarimizni taklif etamiz.

"O'zavtoyo'l" AK Matbuot xizmati